



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

XX ASR QORAQALPOQ POEZIYASIDA ADABIY ANʼANALAR VORISLIGI

Dauletmurat Yunisovich Paxratdinov

Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti Nukus filiali, dotsent

Annotatsiya

Maqolada XX asr qoraqalpoq sheʼriyatida adabiy anʼana va vorislik muammosi tahlil qilinadi. Yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda folklor, klassik Sharq hamda umumturkiy sheʼriy anʼanalarning saqlanishi va transformatsiyasi jarayonlari koʻrib chiqiladi. Tarixiy-adabiy hamda qiyosiy-tipologik tahlil asosida mavzu, janr va uslub darajalarida vorislik qonuniyatlari aniqlanadi. Tadqiqot milliy poetik tafakkur va badiiy ong rivojini tizimli anglashga qaratilgan.

Kalit soʻzlar: adabiy anʼana, vorislik, qoraqalpoq sheʼriyati, XX asr, folklor poetikasi, umumturkiy meros, poetik rivojlanish.

ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ЛИТЕРАТУРНЫХ ТРАДИЦИЙ В КАРАКАЛПАКСКОЙ ПОЭЗИИ XX ВЕКА

Даулетмурат Юнисович Пахратдинов

Нукусский филиал Государственного института искусств и культуры Узбекистана,
доцент

Аннотация

В статье анализируется проблема литературной традиции и преемственности в каракалпакской поэзии XX века. Рассматриваются процессы сохранения и трансформации фольклорных, классических восточных и общетюркских поэтических традиций в условиях новых социально-исторических реалий. На основе историко-литературного и сравнительно-типологического анализа выявляются закономерности преемственности на тематическом, жанровом и стилевом уровнях. Исследование направлено на системное осмысление развития национального поэтического мышления.

Ключевые слова: литературная традиция, преемственность, каракалпакская поэзия, XX век, фольклорная поэтика, общетюркское наследие, поэтическое развитие.

THE CONTINUITY OF LITERARY TRADITIONS IN 20TH-CENTURY KARAKALPAK POETRY

Dauletmurat Yunisovich Paxratdinov

Nukus Branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan, Associate Professor

Abstract

The article analyzes the problem of literary tradition and continuity in twentieth-century Karakalpak poetry. It examines the processes of preservation and transformation of folkloric, classical Eastern, and pan-Turkic poetic traditions within new socio-historical realities. Based on historical-literary and comparative-typological analysis, the study identifies patterns of continuity at thematic, genre, and stylistic levels. The research aims at a systematic interpretation of the development of national poetic thinking and artistic consciousness.

Keywords: literary tradition, continuity, Karakalpak poetry, twentieth century, folklore poetics, pan-Turkic heritage, poetic development.

Jahon adabiyotshunosligida adabiy an`ana va vorislik muammosi badiiy tafakkur taraqqiyotini belgilaydigan asosiy nazariy masalalardan biri sifatida qoraladi. Ayniqsa, milliy adabiyotlar rivojida an`anaviy poetik tajribalarning yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda qayta anglanishi, davom ettirilishi va yangicha mazmun kasb etishi muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shu ma`noda, XX asr qoraqalpoq poeziyasida adabiy an`analar vorisligini kompleks va tizimli o`rganish milliy adabiyot taraqqiyoti qonuniyatlarini chuqur anglash imkonini beradi.

XX asr qoraqalpoq adabiyoti uchun tub burilishlar davri hisoblanadi. Bu davrda qoraqalpoq poeziyasi bir tomondan xalq og`zaki ijodi, klassik Sharq va umumturkiy adabiy merosga tayangan holda rivojlangan bo`lsa, ikkintshi tomondan, yangi ijtimoiy-siyosiy muhit ta`sirida mazmun va shakl jihatdan yangilanish jarayonlarini boshdan ketshirdi. Mazkur jarayonda adabiy an`analarning saqlanishi, transformatsiyasi va yangi poetik qirralarda namoyon bo`lishi vorislik muammosini ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. Mustaqillik yillarida milliy adabiyot tarixini qayta baholash, ijodkor merosini xolis ilmiy asosda o`rganishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, XX asr qoraqalpoq poeziyasida adabiy an`analar vorisligi masalasini tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik va poetik tahlil asosida o`rganish qoraqalpoq adabiyotshunosligida mavjud ayrim nazariy bo`shliqlarni to`ldirishga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirga qadar qoraqalpoq poeziyasida vorislik masalasi alohida shoirlar ijodi yoki muayyan davr doirasida qisman tadqiq etilgan bo`lsa-da, uni XX asr miqyosida yaxlit tizim sifatida o`rganishga etarlitsha e`tibor qaratilmagan. Adabiy an`analarning mavzuy, janriy, uslubiy va poetik darajalardagi davomiyligi kompleks tahlilni talab etadi.

Adabiy an`ana adabiyot taraqqiyotida uzluksizlikni ta`minlovchi muhim estetik va nazariy kategoriya hisoblanadi. U muayyan xalq yoki adabiy maktab doirasida asrlar davomida shakllangan badiiy tafakkur tajribasi, poetik me`yorlar, obrazlar tizimi va uslubiy xususiyatlarni o`z ichiga oladi [1;16-17-b.]. An`ana adabiy jarayonda faqat takrorlanish emas, balki yangilanish uchun zamin yaratadigan ijodiy asos sifatida namoyon bo`ladi.

Adabiyotshunoslikda vorislik kategoriyasi badiiy jarayonning tarixiy izchilligini ta`minlovchi muhim nazariy tushuncha sifatida qoraladi. U muayyan davrda shakllangan poetik tajribaning keyingi avlod tomonidan qabul qilinishi, qayta anglanishi va yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitda yangicha ma`no bilan boyitilishini anglatadi. SHu ma`noda vorislik adabiy taraqqiyotning uzluksizligi va ichki rivojlanish qonuniyatlarini ifoda etadi. Adabiy tajriba hech qachon mutlaq noldan boshlanmaydi. Har bir yangi ijodiy bosqich o`zidan oldingi davr tomonidan yaratilgan badiiy shakllar, obrazlar tizimi va uslubiy an`analarga tayanadi. Biroq bu tayanish mexanik takror emas, balki ijodiy qayta ishlash jarayonidir. YAngi davr ijtimoiy ehtiyojlari va estetik qarashlari asosida meros bo`lib qolgan poetik qoliplar yangi mazmun bilan to`ldiriladi. SHu tariqa an`ana saqlanadi, biroq uning ma`naviy-estetik mohiyati har bir bosqichda yangilanib boradi.

Vorislikni faqat o`tmishni takrorlash deb tushunish noto`g`ri. Aksincha, u badiiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi omillaridan biri hisoblanadi. CHunki yangi ijodiy g`oyalar mavjud poetik tizim doirasida shakllanadi va shu tizimni ichki tomondan o`zgartiradi. Natijada adabiyot taraqqiyotida bir vaqtning o`zida ham barqarorlik, ham yangilanish jarayoni kuzatiladi. SHunday qilib, vorislik adabiy jarayonda tarixiy xotira va ijodiy yangilanishning o`zaro uyg`unligini ta`minlaydigan kategoriyadir. U orqali badiiy tafakkur avlodlar o`rtasidagi bog`liqlikni saqlagan holda, har bir yangi bosqichda o`zining yangicha estetik qiyofasini namoyon qiladi. [2; qarang: A.N. Veselovskiy, Istoricheskaya poetika, 1989]. Shu bois vorislikni mexanik ko`chirish yoki sodda taqlid sifatida emas, balki ijodiy o`zlashtirish jarayoni sifatida baholash lozim.

An`ana va vorislik masalasi adabiyot taraqqiyotining dialektik qonuniyatlari bilan uzviy bog`liq. Yangilanish an`anadan uzilgan holda yuzaga kelmaydi, aksincha, mavjud poetik

tajribaning tanqidiy o'zlashtirilishi orqali amalga oshadi [3; 79-b.]. Shu nuqtai nazardan, har bir yangi adabiy bosqich o'zidan oldingi tajribani inkor etmaydi, balki uning eng samarali jihatlarini saqlagan holda rivojlantiradi.

Adabiy vorislik turli darajalarda namoyon bo'ladi. Ular qatoriga mavzuy vorislik, janriy davomiylilik, uslubiy an'analar, obrazlar tizimi va poetik tafakkur xususiyatlarini kiritish mumkin [4; qarang: Jirmunskiy V.M. Tyurkskiy geroicheskiy epos. – L.: Nauka, 1974.]. Masalan, xalq taqdiri, vatan, inson va jamiyat munosabatlari kabi umuminsoniy mavzular turli davr poeziyasida har xil poetik shakllarda namoyon bo'lsa-da, ularning mafkuraviy-estetik ildizlari an'anaviy tafakkurga borib taqaladi.

Turkiy xalqlar adabiyoti misolida vorislik muammosi yanada kengroq qiyosiy-tipologik ahamiyat kasb etadi. Umumturkiy epik va lirik an'analar, fol'klor poetikasi, obraz va ramzlar tizimi turkiy xalqlar yozma adabiyotining shakllanishida muhim rol o'ynagan [5]. Bu holat milliy adabiyotlarni alohida emas, balki umumiy madaniy-adabiy makon doirasida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Qoraqalpoq poeziyasida adabiy an'ana va vorislik masalasi xalq og'zaki ijodi bilan yozma adabiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Fol'klor poetikasiga xos badiiy obrazlar, syujet motivlari va ifoda vositalari XX asr qoraqalpoq poeziyasida yangi ijtimoiy-tarixiy mazmun bilan boyitilgan holda davom ettirilgan. Shu jihatdan, vorislikni milliy poetik tafakkurning barqaror va bir vaqtning o'zida dinamik xususiyati sifatida baholash mumkin.

Adabiy an'ana va vorislik tushuntishlari qoraqalpoq poeziyasi taraqqiyotini ilmiy asosda tahlil qilish utshun nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu kategoriyalar orqali XX asr poetik jarayonidagi davomiylilik va yangilanish qonuniyatlarini aniqlash imkoni tug'iladi. Jahon adabiyotshunosligida adabiy an'ana va vorislik muammosi badiiy tafakkur taraqqiyotini belgilaydigan muhim nazariy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Adabiyot taraqqiyoti jarayonida an'anaviy poetik tajribaning yangi tarixiy sharoitlarda saqlanishi, qayta talqin qilinishi va yangicha mazmun bilan boyishi vorislikning tabiiy qonuniyati sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, milliy adabiyotlarda vorislik masalasini tizimli o'rganish adabiy jarayonning ichki dinamikasini ochib berish imkonini beradi. XX asr Qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyotida sifat jihatdan yangi bosqichni tashkil etadi. Bu davrda qoraqalpoq poeziyasi xalq og'zaki ijodi, klassik Sharq va umumturkiy adabiy merosga tayangan holda rivojlangan bo'lsa, ayni paytda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'sirida mazmun, janr va poetik shakllarda yangilanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Mazkur jarayonda an'anaviy poetik elementlarning saqlanishi, transformatsiyasi va yangi poetik tizimda namoyon bo'lishi vorislik muammosini ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Qoraqalpoq poeziyasida adabiy an'analar vorisligi masalasi milliy poetik tafakkurning shakllanish va rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa, XX asr boshlaridagi ma'rifatchilik g'oyalari, sovet davri poeziyasidagi ideologik bosim va asrning ikkinchi yarmida milliy o'zlikni anglash jarayonlari an'anaviy poetik tafakkurga turlicha ta'sir ko'rsatgan. Bu holat vorislikni bir tomonlama emas, balki tarixiy-adabiy jarayon sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida qoraqalpoq adabiyoti tarixini qayta ko'rib chiqish, ijodkorlar merosini xolis ilmiy mezonlar asosida baholashga keng yo'l ochildi. Shu nuqtai nazardan, XX asr qoraqalpoq poeziyasida adabiy an'analar vorisligini yaxlit kontseptsiya asosida tadqiq etish milliy adabiyotshunoslikda mavjud nazariy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi. Hozirga qadar qoraqalpoq poeziyasida vorislik masalasi ayrim shoirlar ijodi, alohida janrlar yoki muayyan davrlar doirasida o'rganilgan. Biroq XX asr poeziyasi miqyosida adabiy an'analarning mavzuy, janriy, uslubiy va poetik darajadagi davomiyligi kompleks tadqiqot ob'ekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970.

2. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989.
3. Қарақалпақ халық аңыз әдебияты. Көп томлық. – Нөкис, 1970–1985.
4. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л.: Наука, 1974.
5. Қарақалпақ әдебияты тарихы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1994.